YANGI O'ZBEKISTONDA INSON VA INSON QADRI MASALASINING QONUNLARDA AKS ETISHI

Rasulova Shahinabonu Ilhomqizi
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi
E.mail: shaxinarasulova88@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21808703

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda inson qadri tushunchasi uning yangi tahrirdagi kostitutsiyada va boshqa qonunlarda aks etishi,yurtimizda inson huquq va erkinliklari qay tariqa ta'minlanayotganligi, inson manfaatlari aks etayotgan islohotlar qilinayotgani hamda Taraqqiyot strategiyasida inson qadri ifodalanganligi bayon etiladi.
Kalit so'zlar:Yangi O'zbekiston,Renessans,Raqamli sud konsepsiyasi,Taraqqiyot strategiyasi

ОТРАЖЕНИЕ ВОПРОСА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция человеческого достоинства в Новом Узбекистане, ее отражение в недавно измененной Конституции и других законах, способы обеспечения прав и свобод человека в нашей стране, проводимые реформы, отражающие интересы человека, а также выражение человеческого достоинства в Стратегии развития.
Ключевые слова: Новый Узбекистан, Возрождение, Концепция цифрового суда, Стратегия развития

REFLECTION OF THE ISSUE OF HUMAN RIGHTS AND HUMAN DIGNITY IN THE LAWS OF THE NEW UZBEKISTAN

Abstract: This article describes the concept of human dignity in New Uzbekistan, its reflection in the newly amended Constitution and other laws, how human rights and freedoms are ensured in our country, reforms are being carried out that reflect human interests, and the expression of human dignity in the Development Strategy.
Keywords: New Uzbekistan, Renaissance, Digital Court Concept, Development Strategy

Barchamizga ma'lumki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa "**Renessans**" – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb ataladi. Ma'lumki, bugungacha O'zbekiston zamini ikki buyuk uyg'onish davriga beshik bo'ldi. Bu – jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "**Yangi O'zbekiston**" va "**Uchinchi Renessans**" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uchun ishlab chiqilgan **100 maqsad 7 ustuvor yo'nalish** bo'yicha qilinayotgan va qilinajak ishlarning yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilmoqda.Yangi O'zbekistonda inson qadri ustuvor bo'lib,davlat siyosati va islohotlar inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.Bu jarayonlar davomida O'zbekiston xalqining farovonligini oshirish,ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.Bu esa O'zbekistonni yanada rivojlangan va adolatli davlatga aylantirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz qayd etganidek, Yangi O'zbekiston inson qadri ustuvor bo'lgan huquqiy davlat va shunday bo'lib qoladi. [1]Bunday islohotlar

[1] Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги *https://uza.uz › oz › posts* Yangi O'zbekiston – Yangi o'zgarishlar - uza.uz

«Inson qadri uchun» g‘oyasini hamda hozirgi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan «Inson – jamiyat – davlat» degan yondashuvni hayotimiz mazmuniga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirish zarurligini qayd etmoqda.

Inson qadri deganda har bir fuqaro uchun tinch va xavfsiz hayot kafolati, fundamental huquq va erkinliklarning himoyasi, malakalitibbiy xizmatga kirish imkoniyati, sifatlita’lim olish, shuningdek, mukammal ijtimoiy himoya tizimiva sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishinitushunish kerak. Bundan tashqari, inson qadridoirasida munosib turmush sharoitiyaratish va zamonaviy infratuzilmanibosqichma-bosqich rivojlantirish ham muhim omil sifatida ko‘riladi. Ta’kidlash joizki, inson huquqlari, qadr ulug‘ligi diniy ta’limotlarda, xususan, islomda aniq izohlab berilgan,shariat nuqtai nazaridan ham inson koinotning eng ulug‘ va oliy martabali zotidir.[2]

Bugun haqida gap borar ekan,bevosita shuni ham ta’kidlash joiz Yangi O’zbekistonda inson qadri faqatgina tilda emas balki amalda ham joriy etislishining yaqqol dalili – qonunlardir.Xususan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ni oladigan bo’lsak unga 2020-yilning 30-aprelida yangi tahrirda qabul qilindi,ko’plab moddalar o’zgartirildi,qo’shimchalar kiritildi.Barcha moddalarga inson qadri manfaatlari,huquq-erkinliklari oliy o’ringa qo’yildi.Eski tahrirdagi konstitutsiyaning 19-moddasini oladigan bo’lsak,unda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquqlari va burchlari bilan o’zaro bog‘liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas”[3] deb keltirilgan.Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 20-moddasida esa bu kengroq aytilgan.”O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”.[4] Yangi tahrirdagi konstitutsiyada barcha noaniqliklar tuzatilgan va uni 3-bandiga qaraydigan bo’lsak, mansabdor shaxslarning faoliyatining barchasi inson uning huquq va erkinliklariga qaratilishi kerakligi ta’kidlangan.5-bandida esa inson va davlat o’rtasidagi muammolar insonlar foydasiga hal etishi aytilgan.Nafaqat bu moddalarda balki boshqa moddalarda ham inson - oliy qadriyat tamoyili asosida ish ko’rilgan.Yangi tahrirdagi konstitutsiyada O’zbekiston Respublikasi fuqarolari majburiy ravishda chetga chiqarilashi taqiqlanishi,xalqaro huquq normalariga muvofiq xorijda yashayotganlarning huquqlari davlat tomonidan ta’minlanishi kafotlanashi,har kim malakali yuridik yordam olishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga egaligi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emasligi, davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanligi, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanisi, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi, davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantiradi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi

[2] ombudsman.uz
[3] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- 08.12.1992
[4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- 08.12.1992

to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi haqida bandlar keltirilgan.Bu bandalar eski tahrirdagi konstitutsiyamizda kelitirilmagan edi.Bularning barchasi insonning qadr-qimmati,sha’ni,huquq va erkinlilarining toptalmasligi garovidir.Inson qadri nafaqat konstitutsiyada balki oshqa qonun va hujjatlarda ham mustahkamlangan.Yangi O’zbekistonda fuqarolarning odil sudlovga erishishi uchun qonuniy asoslar bilan bir qatorda ko‘plab qulayliklar ham yartilmoqdaki, bu amalda yurtdoshlarimiz manfaatlariga xizmat qilyapti. Bugungi kunda sudga ariza berish, murojaat yo‘llash, hatto sud majlisida ishtirok etishni onlayn tarzda, ya’ni masofadan turib amalga oshirish imkoni yaratilgan. Eng muhimi, sud jarayonlari asosan ochiqlik asosida o‘tkazilmoqda. Sud ishlarini yuritishda qog‘oz shaklidan voz kechish maqsadida “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarning yuritilishini bosqichma-bosqich to‘liq elektron shaklga o‘tkazish.[5] Bular aholiga yaratilgan juda katta qulaylik bo‘lib, nafaqat vaqt, balki mablag‘larni tejashga xizmat qilayotgani e’tiborga loyiq. Bularning barchasi Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy davlat asoslari yanada mustahkamlanishiga, muhimi, xalqimizning odil sudlovga erishish darajasi ortib borishiga xizmat qiladi.[6]Bundan tashqari yurtimizda ison manfaatlariga xizmat qilayotgan bir qator islohotlar ham amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida inson qadri va erkinliklarini himoya qilish,shuningdek,fuqarolarning ijtimoiy hioyasini kuchaytirish ustuvor yo’nalish sifatida belgilab qo’yildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida O’zbekistonda yangi ish o’rinlari yaratilishi,iqtisodiy o’sish suratlarining oshishi va fuqarolarning hayot darajasi yaxshilanishi kutilmoqda.Taraqqiyot strategiyasi O’zbeistonning kelgusi yillarda barqaror va farovon rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamdir.Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratildi. Misol uchun: «temir daftar», «ayollar daftari», «yoshlar daftari», «mahallabay» va «xonadonbay» ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko‘rsatkichlar emas, balki yordam va ko‘makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o‘z joyida aniq o‘rganilmoqda, ularga vaqtida va samarali yechimlar berilmoqda.

Xulosa. Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, — “inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz”. Bunday ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishda barchamizdan kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirish talab qiladi.[7]Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki har bir shaxs jamiyat va davlat hayotida muhim o’ringa ega, bu o’rin o’sha davlatdagi fuqaroning huquqlari qay darajada ta’minlangani bilan bog’liq bo’ladi. Bugungi kunda inson qadri va uning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish g‘oyasi davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy tamal toshiga aylangan. Mazkur tamoyil, yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilmoqda va ushbu ezgu sa’y-harakatlarni bir-biri bilan uyg‘unlashtiruvchi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги *https://uza.uz › oz › posts* Yangi O‘zbekiston – Yangi o‘zgarishlar - uza.uz
2. ombudsman.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- 08.12.1992
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-140-son.Toshkent sh.21.08.2025
5. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги *https://uza.uz › oz ›* Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan huquqiy davlat
6. Янги Ўзбекистон *https://yuz.uz › uz › news › ozbekiston---inson-qadri* . O‘zbekiston — Inson qadri ustuvor bo‘lgan yurt!

[5] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-140-son.Toshkent sh.21.08.2025
[6] Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги *https://uza.uz › oz ›* Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan huquqiy davlat
[7]Янги Ўзбекистон *https://yuz.uz › uz › news › ozbekiston---inson-qadri...* O‘zbekiston — Inson qadri ustuvor bo‘lgan yurt!